



NAMANGAN VILOYATI MINGBULOQ TUMANI HOKIMINING QARORI

2024-yil 25-oktabr

587-6-81-Q/24

Mingbuloq tumani hokimligi

Namangan viloyati hokimining 2024-yil 22-oktabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish sohalarida ochiqlikni ta’minlash hamda boshqarish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2024-yil 26-sentabrdagi PF–149-son Farmoni ijrosi to‘g‘risida”gi 495-6-0-Q/24-sonli qarori haqida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish sohalarida ochiqlikni ta’minlash hamda boshqarish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2024-yil 26-sentabrdagi PF–149-son Farmoni va Namangan viloyat hokimining 22-oktabrdagi 495-6-0-Q/24-son qarori ijrosini tumanda bajarilishini ta’minlash maqsadida, O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6 va 25-moddalariga asosan,

QAROR QILAMAN:

1. Namangan viloyati hokimining 2024-yil 22-oktabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish sohalarida ochiqlikni ta’minlash hamda boshqarish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2024-yil 26-sentabrdagi PF–149-son Farmoni ijrosi to‘g‘risida”gi 495-6-0-Q/24-sonli qarori ijro uchun qabul qilinsin.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining mazkur Farmoni bilan:

Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi vazirligi (keyingi o‘rinlarda - Vazirlik) hamda Adliya vazirligining 2026-yil 1-yanvardan boshlab hududlarda chiqindilar bilan ishlash darajasini oshirish hamda bu borada ochiqlikni ta’minlash, jamoatchilikning rolini oshirish, tadbirkorlar va aholi o‘rtasida qayta aloqani to‘liq yo‘lga qo‘yishni nazarda tutuvchi quyidagi takliflariga rozilik berilganligi:

chiqindilar bilan bog‘liq xizmatlarni tadbirkorlarga berish yuzasidan o‘tkaziladigan tender jarayonini onlayn kuzatish imkoniyatini yaratish;

sanitar tozalash korxonalari tomonidan chiqindi to‘plash shoxobchalariga videokuzatuv kameralarini o‘rnatish va shoxobchalar faoliyatini aholi tomonidan kuzatish imkoniyatini yaratish;

chiqindilarni tashish bilan shug‘ullanuvchi barcha maxsus texnikalarga sanitar tozalash korxonalari mablag‘lari hisobidan onlayn kuzatuv (GPS) tizimini o‘rnatish hamda mazkur texnikalarni kuzatish bilan bog‘liq bo‘lgan xarajatlar uchun oylik to‘lovlarni markazlashgan holda amalga oshirish va bu orqali chiqindilarning belgilangan grafik va muddatlarga muvofiq olib chiqib ketilishini kuzatish imkoniyatini yaratish;

sanitar tozalash korxonalari to‘g‘risida to‘liq ma’lumot berish, ko‘rsatilayotgan xizmatlar sifati va ko‘lami bo‘yicha shikoyatlarni qabul qilish hamda sanitar tozalash korxonalari bilan qayta aloqa qilish uchun “Call markaz” faoliyatini yo‘lga qo‘yish;

sanitar tozalash korxonalari xizmat ko‘rsatuvchi hududlarning geografik chegarasi hamda aholi va yuridik shaxslarga birlashtirilgan chiqindilarni yig‘ish maydonchalari (konteyner) joylashuvi to‘g‘risida aniq ma’lumotlar berish;

abonentlarning hosil bo‘lgan chiqindilarini olib chiqib ketish grafigini ko‘rsatish;

shunday tartib o'rnatilganki, unga muvofiq chiqindilar bilan ishlashda:

a) Vazirlik:

chiqindilar bilan bog'liq ishlarni amalga oshirish sohasida yagona davlat siyosatini ishlab chiqadi va bajarilishi ustidan nazoratni olib boradi;

chiqindilar bilan bog'liq ishlarni amalga oshirish sohasida qoidalar, normalar va normativlarning ishlab chiqilishini tashkil etadi hamda ularni tasdiqlaydi;

chiqindilar bilan bog'liq ishlarni amalga oshirish sohasida loyiha va loyihaoldi hujjatlar hamda texnika va texnologiyalarning yangi turlarini yaratish bo'yicha hujjatlarni davlat ekologik ekspertizasidan o'tkazadi;

chiqindilarni joylashtirish limitlarini tasdiqlaydi;

chiqindilar bilan bog'liq ishlar amalga oshiriladigan obyektlarning holatini monitoring qiladi;

chiqindilar bilan bog'liq ishlarni amalga oshirish sohasidagi ilmiy-tadqiqot va texnologik ishlanmalar hamda loyiha-smeta hujjatlarini davlat ekologik ekspertizasidan o'tkazadi;

resurslarni tejovchi, chiqitsiz va kam chiqitli texnologiyalarni keng tatbiq etishga, chiqindilarni xo'jalik aylanmasiga jalb qilishga yo'naltirilgan ilmiy-tadqiqot va texnologik ishlanmalarni ishlab chiqadi;

chiqindilarni ekologik sertifikatlashtirishni amalga oshiradi;

chiqindilar bilan bog'liq ishlarni amalga oshirish sohasida mutaxassislar malakasini oshirish hamda qayta tayyorlash bo'yicha ishlarni tashkil etadi;

b) Sog'liqni saqlash vazirligi:

chiqindilar bilan bog'liq ishlarni amalga oshirishda davlat sanitariyaepidemiologiya nazoratini amalga oshiradi;

fuqarolar hayoti va sog'lig'ini chiqindilarning zararli ta'siridan muhofaza etish chora-tadbirlarini belgilaydi;

chiqindilar bilan bog'liq ishlar amalga oshiriladigan obyektlar bo'yicha davlat sanitariyagigiyena ekspertizasi xulosasini beradi;

chiqindilardan tayyorlanayotgan tovarlarga (mahsulotlarga) nisbatan sanitariyagigiyena talablarini belgilaydi hamda ularga doir sanitariya-epidemiologiya xulosasini beradi;

radioaktiv chiqindilar bilan bog'liq ishlarni xavfsiz amalga oshirish, hisobga olish, saqlash, tashish, qayta ishlash va ko'mib tashlashga doir sanitariya qoidalari, normalari va gigiyena normativlariga asosan nazoratni olib boradi;

chiqindilarning fuqarolar hayoti va sog'lig'i uchun xavflilik darajasini belgilashda uslubiy ta'minotni amalga oshiradi;

v) Qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi vazirligi:

oqova suvlarni chiqarib yuborish tarmog'iga oqova suvlarni tashlash, oqova suv tozalash inshootlariga yetkazish va ularni tozalash hamda zararsizlantirish bilan bog'liq dasturlar, strategiyalar hamda konsepsiyalarni ishlab chiqadi;

oqova suvlarni chiqarib yuborish tarmog'iga oqova suvlarni tashlash, oqova suv tozalash inshootlariga yetkazish va ularni tozalash hamda zararsizlantirishni ta'minlaydi;

g) Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahri hokimliklari:

qattiq maishiy chiqindilarni to'plash va olib chiqib ketish xizmatlari yuzasidan buyurtmachi vazifasini bajaradi;

qattiq maishiy chiqindilarni to'plash va olib chiqib ketish xizmatlari bo'yicha hududlarni sanitar tozalash korxonalariga belgilangan tartibda biriktirib beradi;

obodonlashtirish obyektlarida hosil bo'ladigan chiqindilar bilan bog'liq ishlarni amalga oshirish bo'yicha faoliyatni tashkil etadi;

qattiq maishiy chiqindilar bilan bog'liq ishlarni amalga oshirish sohasida tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish uchun sharoit yaratib beradi;

o'z vakolatlari doirasida chiqindilar bilan bog'liq ishlar sohasida davlat-xususiy sheriklik bo'yicha faoliyatni amalga oshiradi;

qattiq maishiy chiqindilar bilan bog'liq ishlar amalga oshiriladigan obyektlarni (chiqindilarni yig'ish shoxobchalarini) tegishli hududga joylashtirish masalalarini hal etadi (xavfli chiqindilar bundan mustasno);

qattiq maishiy chiqindi bilan bog'liq ishlarni amalga oshirishga oid mahalliy dasturlarni tasdiqlaydi;

hududni sanitariya jihatidan tozalash infratuzilmasini rivojlantirish choratadbirlarini amalga oshiradi;

d) fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari:

qattiq maishiy chiqindilar bilan bog'liq ishlarni amalga oshirish sohasidagi davlat dasturlari, hududiy va boshqa dasturlarning ishlab chiqilishi hamda amalga oshirilishida ishtirok etadi;

qattiq maishiy chiqindilar bilan bog'liq ishlar amalga oshiriladigan obyektlarni tegishli hududda joylashtirish va ulardan foydalanish masalalarini hal qilishda ishtirok etadi;

qattiq maishiy va qurilish chiqindilari bilan bog'liq ishlar yuzasidan jamoatchilik nazoratini amalga oshiradi;

chiqindilar bilan ishlash masalalarida aholi va sanitar tozalash korxonalarini o'rtasida bog'lovchi bo'g'in sifatida Sanitar tozalash ishlarini tashkil etish respublika markazi negizida amaldagi shtat birliklarini saqlab qolgan holda Vazirlik huzurida davlat muassasasi shaklida Chiqindilarni boshqarish va sirkulyar iqtisodiyotni rivojlantirish agentligi (keyingi o'rinlarda - Agentlik) tashkil etilganligi;

Bunda Sanitar tozalash ishlarini tashkil etish respublika markazining qonunchilikda nazarda tutilgan vakolatlari, taqdim etilgan imtiyoz va preferensiyalari Agentlik uchun amal qilishi belgilab qo'yilganligi;

belgilanishicha, Agentlik:

2025-yil 1-yanvardan boshlab O'zbekiston Respublikasi respublika budjeti va mahalliy budjet mablag'lari hisobidan moliyalashtirilishi;

Bunda Agentlik markaziy apparat xodimlarining lavozim maoshlarini Yagona tarif setkasi bo'yicha mehnatga haq to'lashning tasdiqlangan razryadlariga muvofiq belgilashda tarif koeffitsiyenti - 1,8 baravarga, uning hududiy bo'linmalarida - 1,4 baravarga oshirilgan holda qo'llanishi;

chiqindilar bilan bog'liq ishlarni amalga oshirish sohasida yagona meyorlar va standartlarni ishlab chiquvchi, sinovdan o'tkazuvchi va amaliyotga tatbiq etuvchi, ushbu yo'nalishdagi faoliyatni muvofiqlashtiruvchi hamda chiqindilarni boshqarish sohasiga taalluqli davlat mulkini boshqaruvchi mas'ul davlat organi hisoblanishi;

qattiq maishiy chiqindilarni olib chiqib ketganlik uchun jismoniy va yuridik shaxslar tomonidan majburiy to'lovlarni to'lash va hisobini yuritish yagona elektron tizimining uzluksiz faoliyatini ta'minlashi;

respublikada maishiy, qurilish, suyuq, zaharli-kimyoviy, tibbiyot va elektron chiqindilarni boshqarish sohasini takomillashtirish, shuningdek, ularni qayta ishlash va utilizatsiya qilishning zamonaviy usullarini tatbiq qilish hamda "nol chiqindi" tamoyilini joriy etishga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshirishi;

respublikada chiqindilarni saralash, qayta ishlash natijasida energiya resurslari, xomashyo va materiallarni ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish orqali sirkulyar iqtisodiyotni rivojlantirish chora-tadbirlarini ishlab chiqadi va tatbiq etilishini tashkil etishi;

chiqindilarni to'plash, saralash, zararsizlantirish, qayta ishlash, yoqish, utilizatsiya qilish va ularni yo'q qilish bo'yicha chiqindi poligonlari hududida ekosanoat zonalarini tashkil etish choralarni ko'rish;

chiqindilarni boshqarish sohasiga xalqaro moliya institutlari va xorijiy hukumat moliya tashkilotlarining kredit va grantlari, xorijiy va mahalliy investorlarning to'g'ridan-to'g'ri investitsiya

mablag'larini jalb qilishi, loyiha hujjatlari ishlab chiqilishi va loyihalar amalga oshirilishini tashkil etishi;

chiqindilar bilan bog'liq ishlarni amalga oshirish sohasiga zamonaviy axborotkommunikatsiya texnologiyalarini joriy etishi;

maishiy chiqindilarni to'plash va olib chiqib ketish va ularni joylashtirish xizmatlari uchun ishlab chiqilgan tariflarning asoslantirilganligini o'rganishi;

chiqindilarni boshqarish sohasida vazirlik va idoralarning faoliyatini muvofiqlashtirib borishi;

chiqindilar hosil bo'lishining normativlarini belgilashda hamda chiqindilarni joylashtirish obyektlarini tashkil etishda ishtirok etishi;

qattiq maishiy chiqindilar bilan bog'liq ishlarni amalga oshirish bo'yicha sanitar tozalash korxonalari, tadbirkorlik subyektlari faoliyatini monitoring qiladi, ular faoliyatidagi muammo va kamchiliklarni bartaraf etish choralarini ko'radi hamda ular faoliyatining asosiy samaradorlik ko'rsatkichlarini baholab borishi;

quyidagilar:

2025-yil 1-martdan boshlab sanitar tozalash korxonalari faoliyatining asosiy samaradorlik ko'rsatkichlarini aniqlash mezonlari 1-ilovaga muvofiq;

Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi huzuridagi Chiqindilarni boshqarish va sirkulyar iqtisodiyotni rivojlantirish agentligi tizimiga o'tkazilayotgan tashkilotlar faoliyatini tashkil qilish jadvali 2-ilovaga muvofiq tasdiqlanganligi;

belgilanishicha:

qattiq maishiy chiqindilarni to'plash va olib chiqib ketish xizmatlari uchun majburiy to'lovlar aholi va yuridik shaxslar tomonidan to'lov hisoblangan davrdan keyingi oyning o'ninchi sanasiga qadar Agentlikning maxsus tranzit bank hisobvaraqlariga to'lanadi va uning maxsus bank hisobvarag'ida jamlanishi;

Agentlikning maxsus tranzit bank hisobvarag'ida jamlangan mablag'lar qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda taqsimlanadi va to'lov topshiriqnomalarisiz tegishli tashkilotlar hisobvaraqlariga avtomatik tarzda o'tkazilishi;

Agentlik va uning tizimidagi tashkilotlarga Sanitar tozalash ishlarini tashkil etish respublika markazi va boshqa tashkilotlardan o'tkazilayotgan ko'chmas mulk obyektlariga va boshqa mol-mulkka bo'lgan huquqlar tegishli yig'imlar va boshqa to'lovlar undirilmagan holda qayta rasmiylashtirilishi;

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining ayrim hujjatlariga 3-ilovaga muvofiq o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilganligi inobatga olinsin.

3. Namangan viloyat hokimining mazkur qarori bilan:

Belgilanishicha, Namangan shahar va tumanlar hokimliklari:

qattiq maishiy chiqindilarni to'plash va olib chiqib ketish xizmatlari yuzasidan buyurtmachi vazifasini bajaradi;

qattiq maishiy chiqindilarni to'plash va olib chiqib ketish xizmatlari bo'yicha hududlarni sanitar tozalash korxonalariga belgilangan tartibda biriktirib beradi;

obodonlashtirish obyektlarida hosil bo'ladigan chiqindilar bilan bog'liq ishlarni amalga oshirish bo'yicha faoliyatni tashkil etadi;

qattiq maishiy chiqindilar bilan bog'liq ishlarni amalga oshirish sohasida tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish uchun sharoit yaratib beradi;

o'z vakolatlari doirasida chiqindilar bilan bog'liq ishlar sohasida davlat-xususiy sheriklik bo'yicha faoliyatni amalga oshiradi;

qattiq maishiy chiqindilar bilan bog'liq ishlar amalga oshiriladigan obyektlarni (chiqindilarni yig'ish shoxobchalarini) tegishli hududga joylashtirish masalalarini hal etadi (xavfli chiqindilar bundan mustasno);

qattiq maishiy chiqindi bilan bog‘liq ishlarni amalga oshirishga oid mahalliy dasturlarni tasdiqlaydi;

hududni sanitariya jihatidan tozalash infratuzilmasini rivojlantirish choratadbirlarini amalga oshirilishi ma’lumot va ijro uchun qabul qilinsin.

4. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish tuman hokimining qurilish, to‘siqlarsiz muhit yaratish, kommunikatsiyalar, kommunal xo‘jalik, ekologiya va ko‘kalamzorlashtirish masalalari bo‘yicha o‘rinbosari X.Boylarov zimmasiga yuklansin.

Tuman hokimi



A.Mansurov